# SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
## (2020- yil yanvar-avgust oylari uchun dastlabki ma`lumot)

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)**

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020 - yil yanvar - avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 341,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019 - yilning mos davriga nisbatan 34,6 mln. AQSh dollariga yoki 9,2 % ga kamaydi.




*Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

**SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR (2020- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

TSA da eksport hajmi 101,1 mln. AQSh dollariga (22,8 % ga ko’paydi) va import hajmi 240,9 mln. AQSh dollariga (18,2 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 139,8 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 78,7 | 19,1 | 59,6 | 23,0 |
| Qozog`iston | 74,7 | 16,8 | 57,9 | 21,9 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 56,9 | 13,8 | 43,1 | 16,6 |
| Afg`oniston | 34,5 | 34,5 | - | 10,1 |
| Germaniya | 24,0 | 0,1 | 23,9 | 7,0 |
| Turkmaniston | 12,7 | 0,4 | 12,3 | 3,7 |
| Turkiya | 10,6 | 1,0 | 9,6 | 3,1 |
| Tajikistan | 3,7 | 3,2 | 0,5 | 1,1 |
| Bangladesh | 5,9 | 5,9 | - | 1,7 |
| Ukraina | 5,8 | 1,8 | 4,0 | 1,7 |

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Sirdaryo, jahonning 70 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (23,0 %), Qozog’iston (21,9 %), Xitoy Xalq Respublikasi (16,6 %), Afg’oniston (10,1%), Germaniya (7,0 %), Turkmaniston (3,7%),Turkiya (3,1 %). Tajikistan (1,1 %), Bangladesh (1,7 %) va Ukraina (1,7 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Turkmaniston va Qozog`iston bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Afg`oniston, Qirg`iz Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (78,7 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (74,7 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (56,9 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (34,5 mln. AQSh dollari), Germaniya (24,0 mln. AQSh dollari), Turkmaniston (12,7 mln. AQSh dollari) va shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Rossiya Federatsiyasi** | **28,7** | **64,9** | **78,6** |
| Eksport | 18,0 | 13,9 | 19,1 |
| Import | 10,7 | 51,0 | 59,6 |
| Saldo | 7,3 | -37,1 | -40,5 |
| **Qo'zog'iston** | **29,3** | **74,4** | **74,7** |
| Eksport | 24,0 | 23,4 | 16,8 |
| Import | 5,3 | 51,0 | 57,9 |
| Saldo | 18,7 | -27,6 | -41,1 |
| **Xitoy Xalq Respubkikasi** | **72,9** | **109,2** | **56,9** |
| Eksport | 25,8 | 18,5 | 13,8 |
| Import | 47,1 | 90,7 | 43,1 |
| Saldo | -21,3 | -72,2 | -29,4 |
| **Afg'oniston** | **1,7** | **5,9** | **34,5** |
| Eksport | 1,6 | 5,9 | 34,5 |
| Import | 0,1 | - | - |
| Saldo | 1,5 | 5,9 | 34,5 |
| **Germaniya** | **2,4** | **13,5** | **24,0** |
| Eksport | - | 0,1 | 0,1 |
| Import | 2,4 | 13,4 | 23,9 |
| Saldo | -2,4 | -13,3 | -23,8 |
| **Turkmaniston** | **0,4** | **8,6** | **12,8** |
| Eksport | 0,1 | 0,3 | 0,4 |
| Import | 0,3 | 8,3 | 12,3 |
| Saldo | -0,2 | -8,0 | -11,9 |
| **Turkiya** | **10,9** | **18,5** | **10,6** |
| Eksport | 4,3 | 2,6 | 1,0 |
| Import | 6,6 | 15,9 | 9,6 |
| Saldo | -2,3 | -13,3 | -8,6 |

**SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Avstriya** | **1,1** | **11,4** | **8,7** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 1,1 | 11,4 | 8,7 |
| Saldo | -1,1 | -11,4 | -8,7 |
| **Bangladesh** | **-** | **0,9** | **5,9** |
| Eksport | - | 0,9 | 5,9 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | - | 0,9 | 5,9 |
| **Ukraina** | **1,7** | **6,8** | **8,7** |
| Eksport | 1,5 | 2,0 | - |
| Import | 0,2 | 4,8 | 8,7 |
| Saldo | 1,3 | -2,8 | -8,7 |
| **Janubiy Koreya** | **8,6** | **9,7** | **5,3** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 8,6 | 9,7 | 5,3 |
| Saldo | -8,6 | -9,7 | -5,3 |
| **Tojikiston** | **1,7** | **3,5** | **3,7** |
| Eksport | 1,3 | 1,9 | 3,2 |
| Import | 0,4 | 1,6 | 0,5 |
| Saldo | 0,9 | 0,3 | 2,7 |
| **Belarusiya** | **0,7** | **2,4** | **0,7** |
| Eksport | 0,6 | 1,2 | 0,1 |
| Import | 0,1 | 1,2 | 0,6 |
| Saldo | 0,5 | 00 | -0,4 |
| **Qirg'iz Respublikasi** | **1,5** | **1,8** | **2,5** |
| Eksport | 0,8 | 0,6 | 0,7 |
| Import | 0,7 | 1,2 | 1,8 |
| Saldo | 0,1 | -0,6 | -1,1 |

**SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Latviya** | **1,0** | **3,4** | **4,5** |
| Eksport | 0,1 | - | - |
| Import | 0,9 | 3,4 | 4,5 |
| Saldo | -0,8 | -3,4 | -4,5 |
| **Pokiston** | **0,4** | **2,0** | **1,5** |
| Eksport | 0,2 | 2,0 | 1,5 |
| Import | 0,2 | - | - |
| Saldo | - | 2,0 | 1,5 |
| **Ekvador** | **-** | **-** | **0,9** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | - | - | 0,9 |
| Saldo | - | - | -0,9 |
| **Fransiya** | **0,1** | **1,6** | **0,8** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 0,1 | 1,6 | 0,8 |
| Saldo | -0,1 | -1,6 | -0,8 |
| **Vengriya** | **0,4** | **1,1** | **1,0** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 0,4 | 1,1 | 1,0 |
| Saldo | -0,4 | -1,1 | -1,0 |
| **Italiya** | **-** | **1,4** | **0,8** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | - | 1,4 | 0,8 |
| Saldo | - | -1,8 | -0,8 |

Viloyatimizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-avgust oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 52,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019 -yilning mos davriga nisbatan ulushi 9,2 % ga oshgan.

**SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAV-LATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, ming. AQSh dollari, ulushi % da)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yil yanvar-avgust oylarida 2019- yilning mos davriga nisbatan kamaydi (23,9 % ga) va jami TSA dagi ulushi 47,6 % ni tashkil etdi.

# SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar - avgust)

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida mamlakatning eksportyorlar soni 125 ortig'ini tashkil etib, ular tomonidan 101,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 22,8 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,1 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (19,2 %), turli xil tayyor buyumlar (8,9 %), nooziq-ovqat xomashyo yoqilg'idan tashqari (11,4 %) oziq-ovqat va tirik hayvonlar (53,4%) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**XSST BO`YICHA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)**



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust)

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar |
| **Jami eksport** | **101,1** | **42,4** | **58,6** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 54,0 | 16,5 | 37,5 | 53,4 | 38,9 | 63,9 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,003 | 0,003 | - | - | 0,002 | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 11,6 | 4,2 | 7,3 | 11,4 | 9,4 | 12,5 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | - | - | - | - | - | - |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 0,6 | 0,6 | - | 0,6 | 1,4 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 4,4 | 4,0 | 0,4 | 4,4 | 9,5 | 0,7 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 19,4 | 6,7 | 12,6 | 19,2 | 15,8 | 21,6 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 1,2 | 1,2 | - | 1,2 | 2,8 | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 9,0 | 8,6 | 0,4 | 8,9 | 20,3 | 0,6 |
| Xizmatlar | 0,9 | 0,6 | 0,3 | 0,9 | 1,1 | 0,6 |

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O`SISH SUR`ATLARI (2020- yil yanvar-avgust)

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsuloti hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda kimyoviy vositalar va boshqa shunga o'xshash mahsulotlarga to`g`ri kelmoqda.

| XSST tarkibi | 2019- yilning yanvar-avgustiga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **122,8** | **97,6** | **151,1** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 184,5 | 95,2 | 3,1m. |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 81,6 | 111,9 | 70,6 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | - | - | - |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 90,0 | 83,4 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 157,1 | 142,0 | 0,3 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 84,6 | 95,1 | 79,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 79,1 | 77,7 | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 93,8 | 92,0 | 168,6 |
| Xizmatlar | 69,7 | 66,9 | 75,4 |

**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI ULUSHI (yanvar-avgust, % da)**

2020- yil yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-avgustiga nisbatan, Oziq-ovqat mahsulotlari va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlarda o`sish kuzatildi.

| XSST tarkibi | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 29,6 | 35,5 | 53,4 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 17,6 | 17,2 | 11,4 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | - | - | - |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | - | 0,9 | 0,6 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 4,9 | 3,5 | 4,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 33,3 | 27,8 | 19,2 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 1,6 | 1,9 | 1,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 10,7 | 11,6 | 8,9 |
| Xizmatlar | 2,3 | 1,6 | 0,9 |

XSST BO`LIMI BO`YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust)

| XSST bo`limi nomi | Mln. AQSh dollari | 2019- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 19,6 | 80,4 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 32,8 | 9,1m. |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 1,1 | 110,7 |
| Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari | 0,1 | - |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 0,2 | |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 0,1 | 56,8 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 0,002 | - |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | - | - |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | | |
| To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 11,0 | 82,7 |
| Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 0,1 | 171,6 |
| O'g'itlar uchun xom –ashyo va mineral xom ashyo (ko'mir neft va qimmatbaxo toshlardan tashqari | 0,1 | 167,4 |
| Qog`oz massasi va makulatura | 0,4 | 49,6 |
| Moy olinadigan urug`lar va mevalar | 0,003 | 45,1 |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | | |
| Tabiiy yoki sun`iy gaz | - | - |
| Elektr toki | - | - |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar | - | - |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | | |
| O`simlik moylari va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 0,6 | 91,0 |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 0,3 | 24,7 m. |
| Noorganik kimyo moddalari | - | - |
| O`g`itlar | - | - |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 0,6 | 2,5 m. |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 3,6 | 138,1 |

**XSST BO`LIMI BO`YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust)**

| | | |
|---|---|---|
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar | 11,5 | 102,2 |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebellardan tashqari) | 0,2 | - |
| Teri,boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan maxsulotlar,boshqa joyda tasniflanmagan | 6,4 | 68,3 |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 0,01 | 59,7 |
| Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 1,3 | 54,2 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar (xavo padushkalaridagi transport vositalri ham) | 0,01 | - |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 0,03 | 90,8 m. |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | - | - |
| Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari | 1,0 | 71,9 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar | 0,2 | 122,3 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 8,6 | 89,7 |
| Poyabzal | 0,2 | - |
| Har xil tayyor buyumlar | 0,2 | 24,6 m. |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | - | - |
| Yo`l anjomlari, sumkalar va shunga o`xshash buyumlar | - | - |
| **Boshqa tovarlar** | | |
| Maxsus operatsiyalar va turlariga ko'ra tasniflanmagan tovarlar | - | - |
| **Xizmatlar** | | |
| Transport xizmatlari | 0,9 | 69,7 |
| Safarlar (turizm) | - | - |
| Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari | - | - |
| Qurilish xizmatlari | - | - |
| Boshqa biznes xizmatlari | - | - |

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)**

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yil yanvar-avgustda 52,8 % ni 2020- yil yanvar-avgustida 42,0 % ni tashkil etdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 58,0 % ga etdi.




2020- yilning yanvar-avgust oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg`oniston (34,1 %), Rossiya Federatsiyasi (18,9 %), Qozog`iston (16,6 %) , Bagladesh (5,8 %), Tojikiston (3,2 %), Ukraina (1,8 %) va Xitoy Xalq Respublikasi (13,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 95,5 % ni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Rossiya Federatsiyasi bir pog`onaga tushishi hisobiga, Afg`oniston eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020- yil yanvar-avgust, % da)

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha geografiyasi 2019- yilning mos davriga nisbatan 33 davlatdan 34 davlatga ko'paydi.

(yanvar-avgust)




SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI (yanvar-avgust)

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil |
| Afg`oniston | 5,9 | 34,5 | 3,7m. | 5,8 m. | 4 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 13,9 | 19,1 | 77,9 | 137,4 | 3 | 2 |
| Qozog`iston | 23,4 | 16,8 | 158,4 | 71,8 | 1 | 3 |
| Xitoy | 18,5 | 13,8 | 71,5 | 74,6 | 2 | 5 |
| Bangladesh | 0,9 | 5,9 | - | 6,5m. | 12 | 6 |
| Tojikiston | 1,9 | 3,2 | 144,1 | 168,4 | 8 | 7 |
| Ukraina | 2,0 | 1,8 | 130,3 | 90,0 | 6 | 8 |
| Turkiya | 2,6 | 1,0 | 62,3 | 38,5 | 5 | 10 |
| Pokiston | 2,0 | 1,5 | 11,3m. | 75,0 | 7 | 9 |
| Qirgiz Respublikasi | 0,6 | 16,8 | 74,6 | 28,0 m. | 13 | 4 |
| Turkmaniston | 0,3 | 0,4 | 4,1m. | 133,3 | 14 | 11 |
| Singapur | - | 0,3 | - | - | 18 | 12 |
| Vetnam | 0,4 | 0,4 | 56,2 | 100 | 15 | 13 |

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil |
| Latviya | 1,9 | - | 17,3m. | - | 9 | 14 |
| Gruziya | 0,9 | 0,2 | - | 22,2 | 11 | 15 |
| Ozarbayjon | 0,1 | 0,2 | 2,1m. | 2,0m. | 16 | 16 |
| Nedirlandiya | 0,2 | 0,1 | - | 50,0 | 17 | 17 |
| Belarus Respublikasi | 1,2 | 0,1 | 190,5 | 8,3 | 10 | 18 |
| Irlandiya | - | - | - | - | 20 | 20 |
| Germaniya | 0,1 | 0,1 | - | 100 | 19 | 19 |

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 19,6 mln. dollar qiymatli 57,0 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 8,7 mln. AQSh dollariga teng 38,1 ming tonna sabzavot, shuningdek, 10,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi 18,9 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 36,3 % ni tashkil etdi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2020 yil yanvar-avgust, ming. AQSh dollari)**



**MEVA - SABZAVOT MAHSULOT-LARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (yanvar-avgust)**

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog`iston (50,0 %), Rossiya Federatsiyasi (19,4%), Afg'oniston (6,6 %) va Tojikiston (5,6 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

| Davlatlar | 2019- yil | | | 2020- yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da |
| Qozog`iston | 26,4 | 15,4 | 63,1 | 40,0 | 9,8 | 50,0 |
| Rossiya Federatsiyasi | 0,9 | 0,3 | 1,2 | 5,8 | 3,8 | 19,4 |
| Afg`oniston | 0,8 | 2,0 | 8,2 | 2,2 | 1,3 | 6,6 |
| Tojikiston | 0,1 | 0,06 | 0,2 | 1,8 | 1,1 | 5,6 |
| Ukraina | 3,2 | 1,4 | 5,7 | 2,6 | 1,0 | 5,1 |

*****-*qiymat ifodasidan*

**SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-avgust)**

2020- yil yanvar-avgust oylarida import hajmi 240,9 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 81,8 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashina va asbob uskunalariga (41,4 %), oziq-avqat mahsulotalri (23,6 %), kimyo maxsulotlari va plastmassa (16,4 %) boshqalar (18,6 %) hisobiga to`g`ri keldi.

**XSST BO`LIMI BO`YICHA IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-avgust, ulushi, % da)**



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust)**

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-avgustida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,8 % tashkil etdi. Jami import hajmi

240,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami import** | **240,9** | **136,9** | **104,0** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 56,8 | 52,8 | 4,0 | 23,6 | 38,6 | 3,9 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 8,3 | 6,0 | 2,2 | 3,4 | 4,4 | 2,2 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 8,5 | 8,4 | 0,1 | 3,5 | 6,1 | 0,1 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 0,5 | 0,4 | 0,1 | 0,2 | 0,3 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 39,5 | 25,4 | 13,9 | 16,4 | 18,7 | 13,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 15,9 | 9,4 | 6,5 | 6,6 | 6,9 | 6,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 99,6 | 32,1 | 67,6 | 41,4 | 23,4 | 65,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 11,8 | 2,3 | 9,5 | 4,9 | 1,6 | 9,2 |
| Xizmatlar | - | - | - | - | - | - |

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O`SISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-avgust)

Importning eng katta ulushi, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (38,6 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (23,4 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (18,7 %), nooziq-ovqat xomashyo,yoqilg`idan tashqari (4,4 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush asosan mashina va transport asbob-uskunalar (65,0 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (13,7 %), hissasiga to`g`ri keladi.

| XSST tarkibi | 2019- yil yanvar-avgustiga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **81,8** | **59,4** | **114,7** |
| **shu jumladan:** | | | |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | 188,3 | 2,1m. | 66,0 |
| **Ichimliklar va tamaki** | - | - | - |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | 83,1 | 65,2 | 3,1m |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | 49,4 | 48,6 | 5,8m |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | 91,6 | 153,0 | 19,5 |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | 62,1 | 103,5 | 35,8 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | 80,1 | 120,9 | 53,9 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | 76,1 | 94,2 | 69,7 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | 53,5 | 113,6 | 47,7 |
| **Xizmatlar** | - | - | - |

## IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2020- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqatmaxsulotlari va tirik hayvonlar 188,3 % , Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar 91,6 %, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari importi esa 80,1 % ni tashkil qildi.

| XSST tarkibi | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| **shu jumladan:** | | | |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | 7,8 | 10,3 | 23,6 |
| **Ichimliklar va tamaki** | - | - | - |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | 2,8 | 3,4 | 3,4 |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | 0,9 | 5,9 | 3,5 |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | 0,5 | 0,2 | 0,2 |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | 27,7 | 21,6 | 16,4 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | 6,4 | 6,7 | 6,6 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | 41,7 | 44,5 | 41,4 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | 12,1 | 7,4 | 4,9 |
| **Xizmatlar** | 0,1 | - | - |

## XSTT BO`YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust 2019- yil yanvar-avgustiga nisbatan)

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | o'zgarish sura'tlari, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 50,4 | 2,6 m. |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 0,2 | 37,3 |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 1,3 | 38,6 |
| Sabzavotlar va mevalar | 0,9 | 5,1 m. |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 0,2 | 126,3 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | - | - |
| Ichimliklar | - | - |

**XSTT BO`YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020- yil yanvar-iyunl2019- yil yanvar-avgustiga nisbatan)**

| | | |
|---|---|---|
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | | |
| Metall rudalari va metal parchalari | 1,5 | 86,0 |
| Probka va yog`och-taxtalar | 3,3 | 2 m. |
| Moy olinadigan urug`lar va mevalar | 2,9 | 48,8 |
| Qog'oz massasi va makullatura | 0,1 | 196,7 |
| Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 0,1 | 27,3 |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar | 5,3 | 32,2 |
| Ko`mir, koks va briketlar | 3,2 | 4,6 m. |
| Elektr toki | - | - |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | | |
| O`simlik moylari va yog`lari | 0,5 | 101,6 |
| Hayvon va o`simlik moylari va yog`lari | - | - |
| Hayvonlar moylari va yog`lari | - | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | | |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 1,0 | 4,3 |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 23,5 | 153,4 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 2,2 | 26,1 |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari | 1,2 | 101,7 |
| Organik kimyo moddalari | 1,1 | 42,8 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| Cho`yan va po`lat | 3,0 | 45,9 |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 4,1 | 158,4 |
| To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar | 0,8 | 38,5 |
| Probka va yog`ochdan tayyorlangan buyumlar | 4,4 | 182,4 |
| Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 2,2 | 42,8 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar | 50,5 | 99,1 |
| Avtomobillarning ehtiyot qismlari | - | - |
| Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulovlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari) | - | - |
| Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari | 13,8 | 62,4 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | 1,1 | 2,3 m. |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 5,5 | 51,5 |

| Turli xil tayyor buyumlar | | |
|---|---|---|
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 2,5 | 63,6 |
| Blokli binolar, suv o`tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 8,4 | 51,1 |
| Har xil tayyor buyumlar | 0,4 | 60,2 |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o`xshash mahsulotlar | 0,1 | 28,5 |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 0,04 | 48,2 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, ming. AQSh dollari, ulush % da)**

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining ko'payishiga sabzavot va mevalar (5 baravarga ko'paydi), Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar (126,3 % ga ko'paydi), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (2,6 barobarga) importi ko'paydi.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, birlamchi shakldagi plastmassalar importining ko'payganligi (153,4 %) hamda organik kimyo moddalari (42,8 %) kamayishiga bevosita ta`sir etgan.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-avgust)

Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 26,6 % ulushi bilan Qozog'istonni (22,8 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O`sish sur`ati, % da | | O`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil |
| Rossiya Federatsiyasi | 51,0 | 59,6 | 4,7 m. | 116,9 | 3 | 1 |
| Qozog`iston | 51,0 | 57,9 | 9,5 m. | 113,6 | 2 | 2 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 90,7 | 43,1 | 192,9 | 47,5 | 1 | 3 |
| Germaniya | 13,4 | 13,9 | 5,5 m. | 178,1 | 5 | 4 |
| Turkmaniston | 8,3 | 12,3 | 24,3 m. | 148,3 | 7 | 5 |
| Avstriya | 11,4 | 8,7 | 10 m. | 76,1 | 6 | 6 |
| Turkiya | 15,9 | 9,6 | 2,4 m. | 60,4 | 4 | 7 |
| Koreya Respublikasi | 9,7 | 5,3 | 112,5 | 54,0 | 8 | 8 |
| Latviya | 9,7 | 5,3 | 112,5 | 54,0 | 9 | 9 |
| Ukraina | 4,8 | 4,0 | 29,1 m. | 84,6 | 10 | 10 |
| Qirgi'z Respublikasi | 1,2 | 1,8 | 180,9 | 149,3 | 14 | 11 |
| Vengriya | 1,1 | 1,0 | 2,6 m. | 91,2 | 18 | 12 |
| Ekvador | | 0,9 | - | | 19 | 13 |
| Italiya | 1,4 | 0,8 | 460,6 m. | 59,4 | 13 | 14 |
| Fransiya | 1,6 | 0,8 | 11,9 m. | 50,0 | 11 | 15 |
| Eron | 1,1 | 0,8 | 62,4 | 69,5 | 16 | 16 |
| Belarusiya | 1,2 | 0,6 | 8,7 m. | 48,0 | 15 | 17 |
| Norvegiya | 0,3 | 0,5 | - | 142,8 | 17 | 18 |
| Tojikiston | 1,6 | 0,5 | 4,7 m. | 29,8 | 12 | 19 |

VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020- yil yanvar-avgust, % da)

2019- yil bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatilmadi.

2020- yil yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan 60 tadan ortiq davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**Importda asosiy hamkor davlatlarning ulushi**

*(yanvar-avgust)*




Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston, Turkiya, Germaniya, Qozog'iston va Avstriya) jami importning 85,2 % ini tashkil qiladi, bu 205,1 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

**Sirdaryo viloyati**
**Tashqi iqtisodiy faoliyat va**
**savdo statistikasi bo`limi.**
**Tel.:67-225-19-70**